
TOSHLOQDA “MEHNAT YARMARKASI” BO‘LIB O‘TDI

Toshloq tumanida ish bilan band bo‘lmaganlar, mehnat migratsiyasidan qaytganlar, IIB probatsiya guruhi ro‘yxatida turgan fuqarolarni bandligini ta‘minlash maqsadida 2-sektor hududidagi Toshloq texnik xizmat ko‘rsatish texnikumida “Xavfsiz hudud va mulkiy turdagi jinoyatlar profilaktikasi” oyligi doirasida mehnat yarmarkasi o‘tkazildi.

O‘tkazilgan mehnat yarmarkasida 12 ta tashkilot va korxonalar 520 dan ortiq bo‘sh ish o‘rinlari bilan qatnashdilar. Mazkur mehnat yarmarkasida 235 nafar fuqarolar qatnashgan bo‘lsa, shundan 64 nafar fuqarolarga ishga joylashtirish maqsadida yo‘llanmalar berildi.

Bundan tashqari 93 nafar fuqarolarga jamoat ishlari, kasb-hunarga o‘qitish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar berish to‘g‘risida huquqiy maslahatlar berildi.

2024-08-15 16:21:25